



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQRISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMa KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI

Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Alfraganus universiteti dotsenti

Email: shxamdamov@tsue.uz

Kamoliddinov Muhibillo Shokirjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Email: muhibillokamoliddinov977@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy shaharlarda transport tizimiga tushayotgan yuklama tobora ortib bormoqda. Aholi sonining ko'payishi va avtomobillar sonining oshishi natijasida yo'l tirbandligi hamda jamoat transportida ortiqcha yuklama yuzaga kelmoqda. Toshkent shahrida ham ushbu muammolar dolzarb bo'lib, ayniqsa metro bekatlarida yo'lovchilarning uzoq kutishi va yo'llarda transport harakatining sekinlashuvi kuzatilmoqda. Shu sababli shahar transport tizimini takomillashtirish uchun yangi va samarali transport yechimlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada Toshkent shahridagi Anhor kanali bo'ylab osma kabinali jamoat transport tizimini yaratish konsepsiyasi taklif etiladi. Taklif etilayotgan tizim kanal ustidan o'tuvchi metall konstruksiyalar orqali harakatlanadigan kabinalardan iborat bo'lib, uning umumiy uzunligi taxminan 23 km ni tashkil etadi. Mazkur transport tizimi shahar hududlari o'rtasida tez va qulay harakatlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu transport tizimi yo'l tirbandligini kamaytirish, metro tizimidagi yuklamani pasaytirish hamda yo'lovchilarning kutish vaqtini qisqartirishga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, bunday tizimni qurish xarajatlari metro qurilishiga nisbatan ancha arzon bo'lishi mumkin. Shu sababli Anhor kanali bo'ylab osma kabinali transport tizimini joriy etish Toshkent shahrining transport infratuzilmasini rivojlantirishda samarali yechim bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: jamoat transporti; arqon yo'lli transport; osma kabinali transport tizimi; shahar mobilligi; yo'l tirbandligini kamaytirish; barqaror transport; kabel transport texnologiyasi.

Abstract: This article discusses the concept of creating a suspended cabin public transport system along the Anhor Canal in the city of Tashkent. In modern cities, the load on transport systems is constantly increasing. Population growth and the increasing number of vehicles lead to traffic congestion and excessive pressure on public transport. In the city of Tashkent, these problems are also significant, especially long waiting times at metro stations and slow traffic movement on city roads. Therefore, introducing new and efficient transport solutions is essential for improving the urban transport system. The proposed system consists of passenger cabins moving along a suspended structure installed above the canal. The total length of the proposed route is approximately 23 km. This transport system is intended to provide fast and convenient mobility between different parts of the city. The results of the study show that such a transport system could reduce road traffic congestion, decrease the load on the metro system, and shorten passenger waiting times. In addition, the construction cost of this system may be significantly lower compared to metro construction. Therefore, implementing a suspended cabin transport system along the Anhor Canal could become an effective solution for improving the transport infrastructure of Tashkent.

Keywords: public transport; ropeway transport; suspended cabin transport system; urban mobility; traffic congestion reduction; sustainable transport; cable transport technology.

Абстрактный: В данной статье рассматривается концепция создания подвесной кабинной системы общественного транспорта вдоль канала Анхор в городе Ташкенте. В современных городах нагрузка на транспортную систему постоянно возрастает. Рост населения и увеличение количества автомобилей приводят к транспортным заторам и перегруженности общественного транспорта. В городе Ташкенте данные проблемы также являются актуальными, особенно длительное ожидание на станциях метро и замедленное движение транспорта на городских дорогах. В связи с этим внедрение новых и эффективных транспортных решений является важной задачей для совершенствования городской транспортной системы. Предлагаемая система состоит из пассажирских кабин, движущихся по подвесной конструкции, установленной над каналом. Общая протяженность предполагаемого маршрута составляет около 23 км. Данная транспортная система предназначена для обеспечения быстрого и удобного передвижения между различными частями города. Результаты исследования показывают, что внедрение такой транспортной системы может способствовать снижению транспортных заторов на дорогах, уменьшению нагрузки на систему метро и сокращению времени ожидания пассажиров. Кроме того, стоимость строительства данной системы может быть значительно ниже по сравнению со строительством метро. Таким образом, реализация подвесной кабинной транспортной системы вдоль канала Анхор может стать эффективным решением для развития транспортной инфраструктуры города Ташкента.

Ключевые слова: общественный транспорт; канатный транспорт; подвесная кабинная транспортная система; городская мобильность; снижение транспортных заторов; устойчивый транспорт; технология канатного транспорта.

Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi kunda yirik shaharlarda transport tizimiga tushayotgan yuklama tobora ortib bormoqda. Aholi sonining o'sishi, shahar hududlarining kengayishi hamda shaxsiy avtomobillar sonining ko'payishi natijasida yo'l harakati tirbandligi, jamoat transportida ortiqcha yuklama va yo'lovchilarning uzoq kutish muammolari yuzaga kelmoqda. Bu muammolar shahar infratuzilmasining samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda aholining kundalik harakatlanish jarayonini qiyinlashtiradi. Shuning uchun zamonaviy shaharlarda transport tizimini

rivojlantirish va yangi, samarali transport turlarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning ko'plab rivojlangan shaharlarida transport tirbandligini kamaytirish va shahar mobilligini oshirish maqsadida turli innovatsion transport tizimlari joriy etilmoqda. Xususan, arqon yo'lli va osma kabinali transport tizimlari shahar transport infratuzilmasini rivojlantirishda samarali yechimlardan biri sifatida qaralmoqda. Bunday transport tizimlari kam joy egallashi, ekologik jihatdan nisbatan toza bo'lishi hamda qurilish xarajatlarning pastligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, ushbu transport tizimlari yo'lovchilarni tez va xavfsiz tashish imkonini beradi.

Ushbu maqolada shahar transport tizimini rivojlantirish maqsadida osma kabinali jamoat transport tizimini yaratish konsepsiyasi ko'rib chiqiladi. Taklif etilayotgan transport tizimi shahar hududlari o'rtasida qulay va samarali harakatlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur tizimni joriy etish transport tirbandligini kamaytirish, jamoat transporti samaradorligini oshirish hamda shahar mobilligini yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi osma kabinali transport tizimining konseptual modelini ishlab chiqish hamda uning shahar transport tizimidagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari shahar transport infratuzilmasini rivojlantirish va barqaror transport tizimini shakllantirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология/Methodology).

Mazkur tadqiqotda shahar transport tizimlarini tahlil qilish, taqqoslash va konseptual loyihalash usullaridan foydalanildi. Taklif etilayotgan osma kabinali transport tizimining asosiy texnik xususiyatlari, yo'nalish uzunligi hamda transport samaradorligi nazariy tahlil asosida baholandi. Shuningdek, tizimning shahar mobilligini oshirish va yo'l tirbandligini kamaytirishdagi imkoniyatlari o'rganildi.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы / Literature review).

Zamonaviy shahar transport tizimlarini rivojlantirish masalasi transport tirbandligini kamaytirish va shahar mobilligini oshirishda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Astorga va Villavicencio Carbajal (2025) tadqiqotida arqon yo'lli transport tizimlari Lotin Amerikasi shaharlarida jamoat transportining innovatsion turi sifatida qaralib, ularning transport infratuzilmasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Mualliflar ropeway transport tizimlari zich qurilgan yoki murakkab relyefli hududlarda samarali transport yechimi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, bunday transport tizimlari kam joy egallashi va nisbatan past qurilish xarajatlari bilan ajralib turishi qayd etilgan.

Pani va hammualliflar (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aerial ropeway transit tizimining shahar transport tizimiga integratsiyasi shahar mobilligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ropeway transport tizimlari multimodal transport tizimlari bilan integratsiya qilinganda aholining transportdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda transport infratuzilmasining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, Irandu (2025) aerial cable car tizimlari ekologik jihatdan toza transport turi sifatida transport tirbandligini kamaytirish va barqaror transport tizimini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Tezak va Cafuta (2025) kabel transport tizimlarining texnik jihatlariga e'tibor qaratib, kabinalarning harakatlanish trayektoriyasi va stansiyalarda sekinlashish jarayonlarini matematik modellashirish orqali o'rganadi. Ushbu tadqiqot ropeway transport tizimlarining xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlashda muhim ilmiy asoslarni yaratadi. Bundan tashqari, Rataj va hammualliflar (2025) transport texnologiyalarining yangi tendensiyalarini o'rganib, innovatsion transport tizimlari va multimodal mobil tizimlarning shahar transportini modernizatsiya qilishdagi rolini tahlil qilgan.

Zamonaviy transport tizimlarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Anthi va hammualliflar (2025) transport infratuzilmasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish yo'l harakati boshqaruvini takomillashtirish va transport tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Nägele va hammualliflar (2025) multimodal transport tizimlarini baholash orqali turli transport turlarini integratsiya qilish shahar mobilligini oshirishda muhim omil ekanligini asoslaydi.

Pérez Fernández (2025) aerial cable car tizimlarining shahar hududlarini rivojlantirishdagi urbanistik va ijtimoiy ta'sirini tahlil qilib, bunday transport tizimlari shahar periferiyalarini rivojlantirish va transport infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Szeląg va hammualliflar (2025) transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish barqaror transport tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar arqon yo'lli va osma kabinali transport tizimlari shahar transport infratuzilmasini rivojlantirish, transport tirbandligini kamaytirish hamda barqaror transport tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/ Analysis and results).

Tadqiqot davomida osma kabinali transport tizimining shahar transport tizimiga ta'siri va uning samaradorligi tahlil qilindi. Zamonaviy shaharlarda transport tizimining rivojlanishi jarayonida yo'l tirbandligi va jamoat transportida ortiqcha yuklama asosiy muammolardan biri

hisoblanadi. Shu sababli transport tizimlarini diversifikatsiya qilish va yangi transport turlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Osma kabinali transport tizimi mavjud transport infratuzilmasini to'ldiruvchi qo'shimcha transport turi sifatida samarali yechim bo'lishi mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, arqon yo'lli kabinali transport tizimi shahar hududlari o'rtasida tez va uzluksiz transport aloqasini ta'minlaydi. Ushbu transport turi yer usti transport vositalariga nisbatan kam joy egallaydi hamda shahar yo'llaridagi transport oqimiga ta'sir ko'rsatmaydi. Natijada yo'l tirbandligi kamayadi va transport harakati samaradorligi oshadi. Bundan tashqari, kabinali transport tizimi doimiy harakatda bo'lgani sababli yo'lovchilarning kutish vaqti qisqaradi.

Toshkent transport infratuzilmasini rivojlantirishning istiqbolli loyihasi Anhor kanali orqali zamonaviy osma monorels qurishdir. Germaniyada sinovdan o'tgan Vuppertal osma temir yo'li namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu tizimning asosiy xususiyati uning daryolar va kanallardan o'tish qobiliyatidir, bu esa uni Anhor kanali bo'ylab qurilish uchun ideal qiladi. Bu yerni tejash, transport tirbandligini kamaytirish va shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Loyiha dastlab nemis muhandisi Eugen Langen tomonidan ishlab chiqilgan va hozirda Vuppertal jamoat transporti kompaniyasi tomonidan boshqariladi. Ushbu tajribani O'zbekistonda joriy etish uchun ushbu kompaniya va Siemens Mobility kabi yirik muhandislik tashkilotlari bilan rasmiy shartnoma tuzilishi mumkin. Bu mamlakatimizga ilg'or texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy transport tizimini yaratish imkonini beradi.

Mazkur transport tizimi shahar turizmini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kanal yoki shahar manzaralari ustidan harakatlanadigan kabinalar turistlar uchun qiziqarli transport va sayyohlik obyektiga aylanishi mumkin. Bu esa shahar iqtisodiy faoliyatini faollashtirish hamda turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, osma kabinali transport tizimini joriy etish iqtisodiy jihatdan ham samarali hisoblanadi. Bunday transport tizimini qurish xarajatlari metro qurilishiga nisbatan sezilarli darajada arzon bo'lishi mumkin. Shu sababli ushbu transport turi shahar transport infratuzilmasini rivojlantirish, transport tirbandligini kamaytirish, turizmini rivojlantirish hamda barqaror transport tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-Jadval.

Osma kabinali transport tizimining shahar transport tizimiga ta'siri.

Transport omili	Iqtisodiy va transport ta'sir mexanizmi	Natijaviy ko'rsatkich
Osma kabinali transport tizimi	Shahar hududlari o'rtasida tezkor transport aloqasini ta'minlash	Harakatlanish vaqtining qisqarishi
Transport infratuzilmasini optimallashtirish	Yer usti transport oqimiga tushadigan yuklamaning kamayishi	Yo'l tirbandligining kamayishi
Kabinali transport texnologiyasi	Uzluksiz va barqaror yo'lovchi tashish imkoniyati	Jamoat transporti samaradorligining oshishi
Innovatsion transport tizimi	Turistlar uchun yangi transport va sayyohlik imkoniyatlari	Turizm oqimining oshishi
Transport xarajatlarining optimallashtirishi	Qurilish va ekspluatatsiya xarajatlarining metroga nisbatan pastligi	Iqtisodiy samaradorlikning oshishi

Ushbu jadvalda osma kabinali transport tizimini joriy etishning transport va iqtisodiy samaradorligi nazariy jihatdan ko'rsatib berilgan. Jadvalda transport omillari, ularning shahar transport tizimiga ta'sir mexanizmlari hamda natijada yuzaga keladigan asosiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik keltirilgan.

Jadvalga ko'ra, osma kabinali transport tizimini joriy etish shahar hududlari o'rtasida tezkor transport aloqasini ta'minlab, yo'lovchilarning harakatlanish vaqtini qisqartiradi. Bundan tashqari, ushbu transport turi yer usti transport vositalariga tushadigan yuklamani kamaytirib, yo'l

tirbandligini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kabinali transport texnologiyasining uzluksiz harakati jamoat transporti samaradorligini oshiradi. Jadvalda shuningdek, bunday transport tizimi shahar turizmini rivojlantirishga yordam berishi hamda qurilish xarajatlarining metroga nisbatan pastligi sababli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa (Заключение, Conclusion).

Ushbu tadqiqotda shahar transport tizimini rivojlantirish maqsadida osma kabinali jamoat transport tizimini joriy etish imkoniyatlari o'rganildi. Zamonaviy shaharlarda transport tirbandligi, jamoat transportida ortiqcha yuklama hamda yo'lovchilarning uzoq kutish muammolari dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arqon yo'lli kabinali transport tizimi shahar hududlari o'rtasida tez va

qulay harakatlanishni ta'minlab, yo'l tirbandligini kamaytirish hamda transport tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ushbu transport tizimi shahar turizmini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kabinali transport shahar manzaralarini kuzatish imkonini berib, turistlar uchun qiziqarli transport va sayyohlik obyektiga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, bunday transport tizimini qurish metro qurilishiga nisbatan sezilarli darajada arzon bo'lishi mumkin. Shu sababli osma kabinali transport tizimi shahar transport infratuzilmasini rivojlantirish va barqaror transport tizimini shakllantirishda samarali yechim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Astorga, S. G., & Villavicencio Carbajal, D. (2025). Ropeways as an Innovation in Latin-American Urban Public Transportation. In *New Players in Mobility: Technische und betriebswirtschaftliche Aspekte* (pp. 673-685). Wiesbaden: Springer Fachmedien Wiesbaden.
2. Pani, A., Puppala, H., Jha, S., Gupta, A., Mukhopadhyay, A., & Dubey, A. (2025). Enhancing Urban mobility with aerial ropeway transit (ART): future accessibility impacts of multimodal transit expansion scenarios. *Transportation Research Record*, 2679(2), 2144-2161.
3. Težak, S., & Cafuta, K. (2025). Geometric Method for Solving the Rope Path Curve for Cabin Deceleration in Cable Car Station. *Symmetry*, 17(11), 1945.
4. Irandu, E. M. (2025). The Potential Role of Aerial Cable Car. *World Transport Policy and Practice*, 28(2).
5. Cazorla, P., & Ávila-Ordoñez, E. (2025). Tram adoption in Cuenca, Ecuador: Analyzing user profiles and preceding transport preferences. *Latin American Transport Studies*, 3, 100027.
6. Anthi, E., Williams, L., Afzal, H. A., Brar, B. A., Bhowmick, J., Gujral, K., & Thomas, E. (2025). The role of artificial intelligence in shaping intelligent motorways: opportunities, challenges, and real-world implementations. *IEEE Transactions on Intelligent Transportation Systems*.
7. Rataj, M., Lodi, C., Zawieska, J., Stepniak, M., Cheimariotis, I., Grosso, M., ... & Marotta, A. (2025). *New and Emerging Transport Technologies and Trends in European Research and Innovation Projects 2024*. Publications Office of the European Union: Luxembourg City, Luxembourg.
8. Szelağ, A., Chudzikiewicz, A., Nikitenko, A., & Nikšić, M. (2025). Re-Engineering of Rolling Stock with DC Motors as a Form of Sustainable Modernisation of Rail Transport in Eastern Europe After Entering EU in 2004—Selected Examples and Problems Observed in Poland and Croatia with Some Perspectives for Ukraine. *Sustainability* (2071-1050), 17(21).
9. Nägele, S., Paz Martinez, A., Adams, Y., Laqua, V., Osebek, M., Struckl, W., ... & Burghout, W. (2025). Pods4Rail-D2. 2 Evaluation/Benchmark of Available and Conceptual Multimodal Mobility Systems.
10. Pérez Fernández, F. (2025). Retrofit: Aerial cable cars and the reengineering of urban peripheries. *Environment and Planning D: Society and Space*, 43(1), 8-28.